

## O'TKIR HOSHIMOVNING "TUSHDA KECHGAN UMRLAR" ROMANIDA OBRAZLAR GALEREYASI

**Ibodatxon Rustamova**

*Farg'ona davlat universiteti  
dotsenti, f.f.d.(DSc)*

**Oygul Sotvoldiyeva**

*Farg'ona davlat universiteti  
1-kurs magistranti*

**Annotatsiya:** *O'tkir Hoshimov asarlari o'zining ta'sirchanligi, inson ruhiyatini keng ochib berishi, badiiy to'qimaning hayot haqiqatlariga uyg'un kelishi bilan ajralib turadi. Mazkur maqolada O'tkir Hoshimovning obraz yaratishdagi o'ziga xosliklari tadqiq qilingan.*

**Kalit so'zlar:** *badiiy estetik ideal, asar mavzusi, hayotiy material, obraz, ramz, konflikt, kompozitsiya.*

Badiiy asar ijodkorning badiiy estetik ideali, uning real borliq bilan munosabati, jamiyatdagi ijtimoiy muhit bilan aloqador ravishda dunyoga keladi. Ya'ni ijodkor borliqning bir vakili sifatida o'zi mavjud bo'lgan olamdagi ayrim muammolar uni tashvishga soladi, o'yga toldiradi, bu muammolarga o'zining munosabatini yoxud yechimini axtarish asnosida badiiy asar dunyoga keladi. A.Qahhor yoshlar seminarida so'zlagan nutqida aytadiki, «yozuvchi biron hodisaga o'quvchida muhabbat yoki nafrat hissi qo'zg'atishi uchun avval o'sha his o'zida bo'lishi kerak». His etish uchun esa «ijtimoiy hodisalarni tahlil qilish, uning yaxshi, yomon ekanini bilish» lozim. «Yozuvchi turmush hodisasini tahlil qilganidan so'ng unga ma'lum munosabatda bo'ladi. Bu munosabati uning qanoati bo'ladi. Uning biron hodisani his qilishi mana shu qanoati asosida bo'ladi»<sup>38</sup>

Asarda tasvirlangan badiiy reallik voqelikning ijodkor tomonidan ko'rilgan, ideal asosida g'oyaviy-hissiy baholangan va muayyan mazmunni ifodalashga mos tarzda ijodiy qayta ishlangan aksidir.

Muallifni tashvishga solgan, o'ylantirgan mana shu muammo uning asariga mavzu bo'ladi.

Ma'lumki, badiiy adabiyotning markazida inson turadi. Insoniyatga qarshi qilingan eng katta jaholat, yozuvlik bu urushdir. Aynan mana shu Birinchi va Ikkinchi

<sup>38</sup> Қаҳҳор А. Асарлар. 5 жилдлик, 5-жилд.- Тошкент, 1989.- Б66.



jahon urushi, afg'on urushi, insoniyat boshiga mislsiz yo'qotishlar, jabr-zulmlar olib keldi. Bu hodisa hassos so'z san'atkorlarining asarlariga bosh mavzu bo'lib kirdi. Shunday ijodkorlardan biri mahoratli yozuvchi O'tkir Hoshimovdir. Ijodkorning "Tushda kechgan umrlar" , "Ikki eshik orasi" "Urushning so'ngi qurboni" kabi asarlarida urush oqibatlarining xalqimiz boshiga keltirgan kulfatlari hikoya qilinadi. "Bir mavzu turli yozuvchilar hayotiy tajribasining xilma-xilligiga va har bir yozuvchi bu mavzuning qaysi qirrasiga e'tibor berishiga qarab turlicha yoritilishi mumkin. Hatto bir yozuvchining o'zi bir hayotiy materialga qayta-qayta murojat etganda ham mavzu jihatdan bir-biriga yaqin, ammo mazmun tomondan bir-biriga o'xshamaydigan asarlar yaratadi."<sup>39</sup>

Xuddi shunday asarlardan biri "Tushda kechgan umrlar" romanidir. Asar 1991-1992-yillarda yozilgan. Ilk bor Sharq yulduzi jurnalida e'lon qilingan. Asar o'ziga xos tuzilishga ega. Roman voqealari kuz tasviri bilan boshlanadi va roman so'ngida ham kuz tasviri keltiriladi, bu o'ziga xos ishora vazifasini o'taydi: "Kuz o'lim to'shagida yotgan bemorga o'xshaydi. Oyoq ostida kasalmand hazonlar ingraydi...Erta bahordan bo'tana bo'lib, shosha-pisha, qirg'og'iga sig'may oqqan ariqlar tiniqlashadi. Shuncha urinishlari zoe ketganini bilib olamga ma'yus boqadi..."<sup>40</sup>

"Mavzu muallifning tajribasida tug'iladi, hayot uni yozuvchining qulog'iga quyadi, ammo uning taassurotlar xazinasida shakllanmagan holda uya solib yotadi va obrazlarni ifodalashni talab etib, yozuvchida uni shakllantirish uchun intilish tug'diradi."<sup>41</sup> Muallif o'zi tanlagan mavzuda badiiy maqsadini ro'yobga chiqarish uchun obrazlar yaratishga ehtiyoj tuyadi. Romanda ham bosh qahramon Rustam bo'lib, voqealar uning kundaligidan lavhalar va tergov hujjatlaridan ma'lumotlar tarzida keltiriladi.

*Rustam obrazi:* Rustam o'qishni to'xtatib armiyaga ketadi, u yerdan esa urush bo'layotgan Afg'onistonga jo'natiladi. U Vatani va xalqi uchun emas, sovet hukumatining siyosiy manfaati uchun jang qildi. O'zi kabi yosh yigitlarning jang maydonlarida bekordan-bekorga o'lib ketishlariga, afg'onlarning urushdan katta azob ko'rayotganlariga guvoh bo'ldi. Urush natijasida u kasallikka chalindi. Urush uning butun hayotini barbod qildi.

*Qurbonoy xola obrazi:* Qurbonoy xola o'z ismga monandday urushning, u keltirgan oqibatlarning, insonlar boshiga tushgan kulfatlardan foydalanib qoluvchi yozuv insonlarning qurboni. U isyon ko'tarmaydi, shikoyat ham qilmaydi,

<sup>39</sup> Izzat Sulton Adabiyot nazariyasi.- Toshkent "O'qituvchi", 2005, 96-bet

<sup>40</sup> Hoshimov O'. Tushda kechgan umrlar,- Toshkent: Yangi asr avlodi, 2018, 3-bet.

<sup>41</sup> Izzat Sulton Adabiyot nazariyasi.- Toshkent "O'qituvchi", 2005, 96-bet



kurashmaydi, umrini nimaga sarflaganini bilmaydi, sog'lig'i yomonlashib ishga yaramay qolgansa ham har kungi yumushlarini qo'ymaydi. Doktorlar man etishsa ham o'z bilganidan qolmay kundalik tasgvishlari bilan band. Bu ayolning umri ham xuddi tushdagidek mazmunsiz behalovat kechdi."Biqini achishib uyg'ondi, "Xudoyim o'zingni rahming kelsin", dedi pichirlab. Eski dardi yana qo'zg'adi, shekilli. To'rt yildirki ahvol shu. Sal og'irroq ish qilsa, yoqmasroq ovqat yesa tamom: o'ng ko'kragingning tagi simmillab og'riydi. Bodringdek bir narsa biqiniga botib, to'satdan sanchiq kiradi. Umida uch-to'rt marta do'xtirxonaga olib chiqdi. Aparaysa qilarmish! Aytishga oson. Aslida-ku, har kimning joni \_ Xudoning omonati. Ertami-kechni oladi omonatini. Boring ana, tig'ning tagidan omon-eson qutulib chiqdi ham... Bir yilgacha yarimjon bo'lib yuradimi? Ko'chani kim supuradi?"<sup>42</sup>

*Shahnoza obrazi:* Shahnoza yosh, hayotga tashna, u Rustamni qattiq sevdi, urushdan kelishini oila qurib baxtli yashashni istadi, ammo Rustam urush xotiralaridan qutula olamdi. Ikkalasi bir-birini qattiq sevsa ham ular baxtli bo'lisha olmadi. Bu baxtsizliklarining asosiy sababi urushning salbiy ta'siri edi. " ...Ko'zlari... hayrat aralash mehr bilan yonib turadigan ko'zlari qovjirab ketibdi. Ming yil uyqudan qolgan odamdek. Kelin degani to'ydan keyin yayrab-yashnab, ochilib ketguvchi edi. Shahnoza ko'z o'ngimda so'lib boryapti. G'alati tovushdan uyg'onib kettim. Nima gapliginintushunolmay uzoq garangsib yotdim. Hushim joyiga kelganida anglab yettim: Shahnoza teskari qarab yig'lab yotibdi. Unini chiqarmaslik uchun yostiqni tishlab olgan. O'kinch bilan alam bilan yig'layapti. Har hiqqillaganida gavdasi silkinib-silkinib ketadi..."<sup>43</sup>

*Komisar obrazi:* Soat G'aniyev otasining izidan borib, sovet komisari bo'lib yetishdi. Yoshligidan ko'plab insonlarning nohaq jazolanishiga sabab bo'lgan, bir ayolning nomusiga tekkan bu odam keksayganda ham pushaymon bo'lmadi. U o'tgan umridan afsuslanmaydi, dunyoqarashini o'zgartirmaydi.

Xulosa qilib aytganda ushbu romanda ishtirok etgan har bir obrazning hayotida urush ma'lum bir iz qoldirdi. Garchi ularning bazilari jang maydonlarida bo'lmagan bo'lsa-da, urushning fojiviy ta'siridan chetta qola olmadi. Muallif personajlarning xoh erkak bo'lsin, xoh ayol, xoh yosh bo'lsin, xoh keksa ularning ichki dunyosi, ruhiyati, o'y-kechinmalarini ifodalashga va buni o'quvchiga ham yetkazib berishga erishishida O'tkir Hoshimovning obraz yaratishdagi mahorati ko'zga tashlanadi. Mazkur romanga O'zbekiston Qahramoni Said Ahmad quyidagicha baho beradi: "Romanni loqayd hayajonsiz o'qib bo'lmaydi, u kitobxonni larzaga soladi. Xalq

<sup>42</sup> Hoshimov O'. Tushda kechgan umrlar,- Toshkent: Yangi asr avlodi, 2018, 4-bet.

<sup>43</sup> Hoshimov O'. Tushda kechgan umrlar,- Toshkent: Yangi asr avlodi, 2018, 237-bet.




boshiga kulfatdan boshqani solmagan qonli urushni boshlagan telba urushqoqlarga dil-dilidan qarq'ish yog'diradi.”

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Izzat Sulton Adabiyot nazariyasi.- Toshkent “O’qituvchi”, 2005
2. Hoshimov O’. Tushda kechgan umrlar,- Toshkent: Yangi asr avlodi, 2018,
3. Қаҳҳор А. Асарлар. 5 жилдлик, 5-жилд.- Тошкент, 1989.- Б66
4. Quronov D. Adabiyotshunoslik nazariyasi asoslari. – Toshkent: Navoiy universiteti, 2018
5. Umurov H. Adabiyotshunoslik nazariyasi nazariyasi, - Toshkent:A.Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 2004
6. Sabirdinov, A. (2019). Sketches to the novel “Night and day” by Chulpan. Scientific journal of the Fergana State University, 1(6), 119-120.
7. Sabirdinov, A. G. (2021). Interpretation of Characters in Utkir Hoshimov’s Story “Yanga”. International Journal of Multicultural and Multireligious Understanding, 8(6), 196-200.
8. Sabirdinov, A. (2020, December). ASKAR KASIMOV IN THE UZBEK POETRY OF THE XX CENTURY THE ROLE AND IMPORTANCE OF CREATION. In Конференции.
9. Sabirdinov, A. G. (2021). Interpretation of the banned period in the stories of Naim Karimov. Asian Journal of Multidimensional Research, 10(11), 4-91.
10. Сабирдинов, А. Г. (1993). Слово и образ в поэзии Айбека.
11. Oripova, G. (2019). UZBEK POETRY AND THE WORLD LITERATURE IN THE YEARS OF INDEPENDENCE. Scientific Journal of Polonia University, 32(1), 116-120.
12. Oripova Gulnoza Murodilovna. (2019). THE PECULIARITIES OF VAZN METER IN UZBEK POETRY OF THE INDEPENDENCE PERIOD. International Journal of Anglisticum. Literature, Linguistics and Interdisciplinary Studies. Volume: 8 /Issue:2/. – Macedonia, 2019. –P.33-39.
13. Murodilovna, O. G. (2020). Melody and musicality in Lyrics. ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal, 10(11), 656-664.



- 
14. Oripova G. M., Tolibova M. T. Q. Composition Of Modern Uzbek Stories //The American Journal of Social Science and Education Innovations. – 2021. – Т. 3. – №. 03. – С. 245-249.
  15. Oripova, G. (2020, December). RHYTHM AND MYTHING IN LYRICAL GENRE. In Конференции.
  16. Oripova, G. (2019) "Traditions of folk ballads and distinctiveness of uzbek poetry of independence period," Scientific journal of the Fergana State University: Vol. 2 , Article 12.
  17. Oripova, G. M. (2021). Genesis And Essence Of Genre Concept. The American Journal of Social Science and Education Innovations, 3(12), 90-94.
  18. Oripova, Gulnoza, & Ibrohimova, Gulchiroy (2022). SIROJIDDIN SAYYID IJODIDA MUMTOZ MUSHTARAKLIKLAR. International scientific journal of Biruni, 1 (2), 251-255.
  19. Oripova, Gulnoza Murodilovna, Akhmadjonova, Okila Abdumalikovna, Kholmatov, Oybek Umarjon Ugli, & Muminova, Tabassum Siddigovna (2022). INTERPRETATION OF MOTHER IMAGE IN LITERATURE. International scientific journal of Biruni, 1 (2), 304-309.
  20. Oripova, Gulnoza, & Alijanova, Maftuna Azimjon Qizi (2022). ASQAD MUXTORNING "CHINOR" ROMANIDA AYOL PORTRETINING BADIY-PSIXOLOGIK ASOSLARI. International scientific journal of Biruni, 1 (2), 221-226.

